

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat
va savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik
jihatdan tartibga solish agentligining
“ 3 ” yul 2023 yildagi
108k -con buyrug‘iga
10-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Jahon
iqtisodiy tizimiga sohani integratsiyalashuvini rivojlantirish bo‘limi
to‘g‘risida
NIZOMI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik deb ataladi) Jahon iqtisodiy tizimiga sohani integratsiyalashuvini rivojlantirish bo‘limining (keyingi o‘rinlarda – Integratsiya bo‘limi deb ataladi) qo‘yiladigan talablarni, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

2. Integratsiya bo‘limi – Agentlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi;

3. Integratsiya bo‘limi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga, Jaxon Savdo Tashkiloti (WTO) normalariga amal qiladi.

4. Integratsiya bo‘limi boshlig‘i lavozimiga oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan Agentlik tizimida yoki davlat va xo‘jalik boshqaruv organlarida kamida 5 yil ishlagan, ingliz va rus tillarini yaxshi o‘zlashtirgan shaxs tayinlanadi.

Integratsiya bo‘limi bosh mutaxassis lavozimiga oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan va Agentlik tizimida yoki davlat va xo‘jalik boshqaruv organlarida 3 yildan kam bo‘lmagan ish stajiga ega bo‘lgan shaxs tayinlanadi.

5. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar bo‘lim xodimi lavozimida ishlashi mumkin emas.

2-bob. Integratsiya bo‘limi faoliyatini tashkil etish

6. Integratsiya bo‘limi bevosita Agentlik bosh direktoriga bo‘ysunadi.

Integratsiya bo‘limiga Agentlik bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi.

7. Integratsiya bo‘limi boshlig‘i:

Integratsiya bo'limiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, bo'lim ishlarini tashkil etadi va nazorat qiladi;

bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi, taqdim etiladigan tahliliy materiallar va hujjatlarning to'liqligi uchun shaxsan javob beradi;

xodimlar o'rtasida funksional vazifalarni taqsimlaydi;

xodimlarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish, shuningdek rag'batlantirish yoki ularni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritadi;

Integratsiya bo'limi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi va Agentlik rahbariyatiga kiritadi.

3-bob. Integratsiya bo'limining asosiy vazifalari va funksiyalari

8. Quyidagilar integratsiya bo'limi faoliyatining asosiy vazifa va funksiyalari hisoblanadi:

Sohaga oid milliy qonunchilik, qaror va tartiblarni JST bitim, qoida me'yorlariga muvofiqlashtirish bo'yicha Agentlik va tizim tashkilotlari tomonidan tayyorlangan takliflarni ko'rib chiqadi,

Chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega bo'lgan boshqa sub'ektlar bilan sohaga oid O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzishda ishtirok etadi va takliflar kiritadi;

Agentlik tomonidan xorijiy delegatsiyalar va vakillarni qabul qilish bilan bog'liq protokol ishlarini amalga oshiradi, shuningdek, uchrashuv bilan bog'liq materiallarni o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqadi;

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan muzokaralar jarayonida ishtirok etadi;

integratsion va xalqaro tashkilotlar bilan tuzilgan belgilangan faoliyat sohasidagi shartnomalar va bitimlardan, mintaqaviy idoralar, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda a'zolikdan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlarni bajarilishini nazorat qiladi va tashkil etadi;

markaziy va quyi tashkilotlarning bo'linmalari integratsion va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarga doir masalalar bo'yicha takliflarini umumlashtiradi;

Agentlikning vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha Jahon savdo tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, MDH mamlakatlari va boshqa xalqaro integratsion tashkilotlar va mamlakatlar bilan hamkorlikni tashkil etadi va amalga oshiradi;

Agentlikning quyi tashkilotlarini xalqaro hamkorlik va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash masalalariga oid O'zbekiston Respublikasining hukumatlararo va idoralararo

shartnomalar va bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tarkibiy bo‘linmalari, quyi tashkilotlari va muassasalari tomonidan bajarilishi yuzasidan nazorat olib boradi;

xalqaro tashkilotlar bilan texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash masalalari bo‘yicha olib borilayotgan muzokaralar bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, umumlashtirish va faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha Agentlik raxbariyatiga takliflar tayyorlaydi;

Agentlikning xalqaro tashkilotlar faoliyatiga, xorijiy mamlakatlar tashkilotlari bilan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlikka oid hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarini belgilashda ishtirok etadi va ularning amaliyotga tatbiq etilishini ta’minlaydi;

Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro, integratsion va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etadi va amalga oshirish uchun kerakli materiallarni va hujjatlarni tayyorlaydi;

Agentlikning quyi tashkilotlari bilan birga faoliyat sohasidagi tadbirlar (konferensiyalar, forumlar, seminarlar, ko‘rgazmalar va boshqalar)ni muvofiqlashtiradi, tayyorlaydi va o‘tkazadi;

Agentlikning quyi tashkilotlariga belgilangan tartibda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ishtirok etishlari uchun tashkiliy va uslubiy yordam beradi;

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan hamkorlik masalalari bo‘yicha idoralararo ishchi guruhlarining Agentlik vakolatiga taalluqli masalalari bo‘yicha yig‘ilishlarda ishtirok etadi;

O‘rnatilgan tartibda xorijiy davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar va bitimlar, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohasida O‘zbekiston, xorijiy va integratsion tashkilotlarning hamkorligi to‘g‘risidagi loyihalarni tayyorlashda qatnashadi;

Agentlik majlislari uchun axborot va hisobot materiallarini tayyorlaydi, shuningdek, xalqaro hamkorlik bo‘yicha yillik va joriy hisobotlarda ishtirok etadi;

Mutaxassislarni chet elda va O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va texnik tartibga solish sohasidagi xalqaro o‘quv va malaka oshirish dasturlari uchun xalqaro dasturlar doirasida takliflar tayyorlashda va amalga oshirishda qatnashadi;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro va integratsion tashkilotlarda a‘zoliqi bilan bog‘liq qarorlar, qarorlar va majburiyatlarni, shuningdek hukumatlararo va idoralararo shartnomalar va bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilishini nazorat qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lish samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy mas’uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 3 avgustdagi PQ-3170-sonli qaroriga muvofiq Agentlik bosh direktori va o‘rinbosarini xizmat safarini o‘rnatilgan tartibda ko‘rib

chiqish va kelishish uchun Vazirlar Maxkamasi hamda tegishli vazirliklarga kiritadi.

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini xalqaro va integratsion tashkilotlarning texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash masalalariga oid talablariga muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqishni tashkil etadi;

O‘z vakolatlari doirasida, o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tarkibiy bo‘linmalari va quyi tashkilotlari ishtirokida amalga oshiradi.

4-bob. Integratsiya bo‘limning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

Quyidagilar Integratsiya bo‘limining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi hisoblanadi:

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida xalqaro integratsiyaga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonun hujjatlari bilan O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

Ushbu Nizomga muvofiq Agentlikning markaziy apparati va quyi tashkilotlari bilan birgalikda ish olib borish;

Agentlik va uning quyi tashkilotlarning mansabdor shaxslaridan bo‘limga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni olish;

topshiriqlarni tarkibiy bo‘linmalarga va quyi tashkilotlarga yetkazadi hamda ularning bajarilish jarayonini nazorat qiladi;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyati masalalari bo‘yicha O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tarkibiy bo‘linmalariga va quyi tashkilotlariga so‘rovnomalar jo‘natadi hamda ularning ijrosini nazorat qiladi;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tarkibiy bo‘linmalari va quyi tashkilotlaridan kelib tushgan takliflarni o‘rganadi;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tarkibiy bo‘linmalari va quyi tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etishini tashkil etadi;

Agentlik tomonidan xalqaro hamkorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida shartnomaviy majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etadi;

Integratsiya bo‘limiga taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini to‘liq va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini tashkil etadi;

O‘z faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan axborotning maxfiyligini ta‘minlaydi;

Davlat siriga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun

hujjatlari talablariga rioya qilish;

Integratsiya bo'limi faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq hujjatlarni hisobga olish va saqlashni ta'minlash.

Integratsiya bo'limi faoliyati bilan bog'liq axborot va hujjatlarni saqlash va yuritish uchun javob berish;

Integratsiya bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Integratsiya bo'limi faoliyatini takomillashtirish uchun Agentlik raxbariyatiga taklif kiritish;

Integratsiya bo'limi unga ushbu Nizom va boshqa qonun hujjatlari bilan yuklangan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

Integratsiya bo'limi xodimi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Integratsiya bo'limi xodimi o'z majburiyatlari va funksiyalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.